

BADIIY MATNLAR BILAN ISHLASH JARAYONIDA ÓQUVCHILARDA TASAVVUR VA MANTIQUIY FIKRLASHNI TAKOMILLASHTIRISH

Barilloeva Mohinur Amrullo qizi

Osiyo Xalqaro Universiteti, Iqtisodiyot va pedagogika fakulteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada badiiy matnlarning ta'lim jarayonidagi o'rni, o'quvchilarda tasavvur va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishdagi ahamiyati ilmiy nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Badiiy adabiyot inson tafakkurini boyituvchi, hissiy dunyo qarashini kengaytiruvchi muhim vosita hisoblanadi. Ayniqsa, umumta'lim maktablarida ona tili va adabiyot darslarida badiiy matnlar bilan ishlash o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, voqealarni aniq tahlil qilishi va xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Maqolada badiiy matn tushunchasi va uning pedagogik imkoniyatlari yoritilib, badiiy obrazlar, syujet, kompozitsiya, til vositalari orqali o'quvchilarda taffakkur va tasavvur shakllanishi izohlanadi. Badiiy asarlar orqali o'quvchida matndagi voqealarni ko'z oldiga keltirish, qahramonlarni ruhiy xolatini his qilishi va ularning xatti-xarakatlarini mantiqiy baholaydi. Bu esa taasavvur bilan bir qatorda mantiqiy fikrlashning ham rivojlanishiga olib keladi.

Maqolada tasavvur va mantiqiy fikrlash tushunchalari o'rganilib bu ikki jarayonning o'zaro uzviy bog'liqligi ochib beriladi.

Shu bilan birga, maqolada o'quvchilarning yosh xususiyatlari hisobga olingan holda badiiy matn tanlash masalasiga katta e'tibor qaratiladi.

Kalit sózlar: Badiiy matn, mantiqiy fikrlash, badiiy tafakkur, tanqidiy fikrlash, nutq madaniyati, ijodiy tafakkur, adabiy tahlil, didaktik yondashuv, obrazlar tizimi, pedagogik mahorat, kitobxonlik madaniyati, ta'lim samaradorligi

Аннотация: В данной статье анализируется роль литературных текстов в образовательном процессе, их значение в формировании воображения и логического мышления учащихся с научно-теоретической точки зрения. Литература является важным инструментом, обогащающим человеческое мышление и расширяющим эмоциональное мировоззрение. Особенно в средних школах работа с литературными текстами на уроках родного языка и литературы развивает у учащихся самостоятельное мышление, четкий анализ событий и навыки формулирования выводов. В статье освещается понятие литературного текста и его педагогические возможности, а также объясняется формирование мышления и воображения у учащихся посредством художественных образов, сюжета, композиции и языковых

средств. Через художественные произведения учащийся визуализирует события в тексте, ощущает психическое состояние персонажей и логически оценивает их действия. Это приводит к развитию логического мышления наряду с воображением.

В статье изучаются понятия воображения и логического мышления и раскрывается неразрывная связь между этими двумя процессами.

В то же время, в статье уделяется большое внимание вопросу отбора литературных текстов с учетом возрастных особенностей учащихся.

Annotation. This article analyzes the role of literary texts in the educational process and their significance in the development of students' imagination and logical thinking from a scientific and theoretical perspective. Literature is an important tool that enriches human thinking and broadens emotional worldview. Especially in secondary schools, working with literary texts in mother tongue and literature classes develops students' independent thinking, clear analysis of events, and skills of drawing conclusions. The article highlights the concept of the literary text and its pedagogical potential, and explains how students' thinking and imagination are formed through artistic images, plot, composition, and linguistic means. Through literary works, students visualize the events described in the text, perceive the psychological states of characters, and logically evaluate their actions. This leads to the development of logical thinking alongside imagination.

The article examines the concepts of imagination and logical thinking and reveals the inseparable connection between these two processes.

At the same time, considerable attention is paid to the issue of selecting literary texts with regard to the age characteristics of students.

Kirish: Bugungi kunda zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarni har tomonlama rivojlantirish, ularning tafakkur doirasini kengaytirish, mantiqiy fikrlashini rivojlantirish va voqea - hodisalarga ongli munosabat bildirishini ta' minlash muhim masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Ayniqsa, o'quvchi yoshlarning tasavvur qila olish va mantiqiy fikrlash qobiliyatlari shuningdek, bilimlarni chuqur o'zlashtirish va ularni amaliy faoliyatda qo'llay olishlari muhim omil hisoblanadi. Buning yagona yo'li badiiy matnlar orqali o'quvchi tafakkuriga bevosita ta'sir ko'rsatish va adabiy asarlar orqali o'quvchilarda hayotiy voqealarni obrazli idrok etishlari, qahramonlarning xatti - harakatlarini tahlil qilishlari, sabab - oqibatlar o'rtasidagi bog'liqlikni anglay olishlari lozim. Bu jarayon esa tasavvur va mantiqiy fikrlashning o'zaro uygun holda tivojlanishiga zamin hozirlaydi. Badiiy matn bilan oshlash jarayonida o'quvchi matnni shunchaki o'qibgina qolmay, balki undagi voqealarni tushuna boshlaydi, tasavvur hosil qiladi va o'z fikr - mulohazalarini shakllantira boshlaydi.

Shu nuqtai nazardan, badiiy matnlar bilan ishlash jarayoni o'quvchilarning fikrlash faolligini oshiruvchi muhim pedagogik jarayon hisoblanadi. Matn ustida olib boriladigan savol- javoblar, tahliliy muhokamalar hamda ijodiy topshiriqlar o'quvchilarda tasavvuriy fikrlashni rivojlantiradi, mantiqiy xulosa chiqarishga o'rgatadi. Buning natijasida o'quvchilar matndagi yashirin ma' nolarni anglashlari, voqealar rivojini tahlil qilishlari va mustaqil fikr bildirish kónikmalari shakllanadi.

Mazkur maqolada badiiy matnlar bilan ishlash jarayonida o'quvchilarda tasavvur va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning pedagogik ahamiyati, mazkur jarayonning ta'lim samaradorligiga ta'siri hamda uni amalga oshirishga doir nazariy yondashuvlar yoritib beriladi.

1.BADIIY MATNLAR BILAN ISHLASH METODIKASINING ASOSLARI.

Badiiy matnlar bilan ishlash metodikasi adabiy ta'limning muhim tarkibiy qismi bólib, o'quvchilarda nutq madaniyatini, estetik did va mantiqiy fikrlash qobiliyatlari rivojlantirishda xizmat qiladi. Shuningdek, badiiy matnlar bilan ishlashning asosiy maqsadi o'quvchining matn mazmunini anglash, muallif g'oyasini tushunish , obrazlar tizimi tahlil qilish va badiiy ifoda vositalarini idrok etish kónikmalarini rivojlantirishdan iborat. Metodika jarayonida nafaqat matn mazmuni balki uning asosiy g'oyasini ochib beradi.

1.1 Zamonaviy ta'lim jarayonida badiiy matnlarning órni. Zamonaviy ta'lim jarayonida badiiy matnlar ta'limning muhim vositasi sifatida o'quvchilarning intellektual, ma' naviy va estetik rivojida muhim órin egallaydi. Badiiy matnlar orqali o'quvchi nafaqat bilim oladi , balki hayotni, insoniy munosabatlarni va jamiyatni anglay boshlaydi. Shuningdek, badiiy matnlar zamonaviy ta'limda o'quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Asar mazmunini tushunish va tahlil qilish, qahramonlar xarakterini baholash va muallif g'oyasini anglab yetish jarayonida o'quvchilar mustaqil fikr yuritishga , asarga nisbatan ózlarining munosabatlarini bildirishlariga yordam beradi. Bu esa zamonaviy ta'lim talab qiladigan muhim bir kompetensiyalardan biri sanaladi.

1.2 Boshlan'ich sinflarda badiiy matnlar bilan ishlashning metodik tamoyillari. Boshlan'ich sinflarda badiiy matnlar bilan ishlash jarayonida nafaqat ta'lim balki tarbiya bilan uzviylikda olib borish ham bir asosiy tamoyillardan biri hisoblanadi. Har bir matn orqali o'quvchilarda halollik, mehnatsevarlik, mehr-oqibat, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat kabi umuminsoniy va milliy qadriyatlar singdirilib borilishi lozim. Shuningdek, darsda o'quvchilarni shunchaki tinglovchi qilibgina qolmay, ularni darsda faol qatnashishlatini va mustaqil fikrlarini bayon qilishlariga imkon yaratib berishlari lozim. Darsda kórgazmalilik va obrazlilikka ham etibor qaratishimiz lozim . Zero o'quvchilar eshitganiga emas , kórganlariga va shu kórgan voqealarning ichida bólob ózlari ham rol ijro etganlarida

tushunishlariyam oson va esda saqlab qolishlari juda yaxshi bolar edi. Chunki boshlangich sinf oquvchilarida xali eshitib tushunish qobiliyati yuqori sinflardagilarga nisbatan ancha sustroq boladi.

1.3 Yuqori sinflarda badiiy matnlar bilan ishlashning nazariy- metodik tamoyillari. Yuqori sinflarda badiiy matnlar bilan ishlash jarayonida oquvchilarda adabiy tafakkur, estetik did, mustaqil tahlil qilish va xulosa chiqarish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan murakkab jarayon bo'lib, oqituvchi asar oxirida shunchaki tayyor xulosani bermaydi, balki savol va topshiriqlar orqali oquvchilarni oylashga izlanishga yonaltiradi. Muallif goyasini anglash, qahramonlarga munosabat bildirish, muammolarni hayot bilan bog'lash orqali oquvchilarda tahliliy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlari shakllanib boradi. Shuningdek, badiiy asarlarni hamma oquvchi ham bir xil tushunavermaydi. Kimdadir hissiy idrok kuchli yana kimdadir mantiqiy tahlil yetakchilik qiladi. Bunday sharoitda oqituvchi asar yuzasidan turli ijodiy, tahliliy tanqidiy xarakterdagi topshiriqlardan foydalanib, oquvchilarning individual imkoniyatlarini namoyon etishiga sharoit yaratib berishlari lozim. Shuningdek, guruhli tahlil, bahs- munozara, loyiha ishlari yoki matn asosida esse yozdirish ham eng samarali usullardan biri.

2.DARSLARDA BADIY MATNLARDAN FOYDALANIB, OQUVCHILARNING FIKRLASH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH.

Dars jarayonida badiiy matnlardan unumli foydalanish oquvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda muxim ahamiyatga ega. Badiiy asarlar oquvchini nafaqat bilim olishiga, balki mushohada yuritishga, hayotiy voqealarga chuqurroq nazar tashlashga undaydi. Matn asosida beriladigan ochiq savollar va ijodiy topshiriqlar oquvchilarning fikrlash doirasini kengaytirib, ularni erkin mulohaza yuritishga chorlaydi. Shuningdek, badiiy matnlar oquvchilarning nutqini rivojlanishda ham beqiyos manba hisoblanadi. Matndan olingan iboralar, obrazli ifodalar va badiiy tasvir vositalari oquvchilarning lug'at boyligini oshiradi, fikrini ravon va ta'sirchan ifodalashga yordam beradi.

2.1. Qahramonlar obrazini tahlil qilish orqali mantiqiy fikrlashni rivojlantirish.

Oquvchilar qahramonlar obrazini organish davomida ularning xatti-harakatlari, qarorlari va ichki kechinmalarini solishtirib taxmin qiladilar. Nima sababdan qahramon aynan shunday yo'l tutgani, uning tanlovi qanday oqibatlariga olib kelgani haqida fikr yuritish oquvchini mantiqan mushohada qilishga undaydi. Qahramonni ijodiy va salbiy jihatlarini ajratish ularni dalillar orqali oquvchilar asosli fikr bildirishga organadilar. Shuningdek qahramonlar obrazini taqqoslash ham mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi va ularning ma'naviy dunyosini boyitadi, hayotiy qarashlarni shakllantiradi.

2.2. Ijodiy topshiriqlar yordamida tasavvurni kengaytirish. Ijodiy topshiriqlar orqali oquvchilar voqealarni boshqacha tasavvur qilishga, mavjud holatlarga yangicha yondashuv,

yangicha yo'l topishga harakat qiladilar. Masalan, asarga mos yakun topish, qahramon nomidan xat yoki kundalik tuzish, voqeani boshqa bir obraz nigohi bilan bayon qilish kabi mashqlar o'quvchini tasavvurini kengaytiradi. Bu jarayonda u mantiqiy fikrlash bilan bir qatorda ijodiy tafakkurni ham uyg'unlashtiradi.

3. Bob. Badiiy matnlar asosida olib borilgan amaliy tajribalar va uning natijalari.

Amaliy tajribalar davomida o'quvchilar bilan badiiy matn asosida turli mashg'ulotlar tashkil etildi. Masalan, matn mazmunini mantiqiy tahlil qilish, qahramonlar obrazini o'rganish, muammoli vaziyatlar yuzasidan fikr bildirish va ijodiy topshiriqlar bajarish bilan o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi sezilarli darajada oshdi. Ayniqsa, o'quvchilarning erkin fikrlashi va mustaqil xulosa chiqarish qobiliyati yaxshi tomonga o'zgarгани sezilarli darajada kuzatildi.

3.1 . Tajriba natijalariga asoslangan metodik xulosalar va tavsiyalar. Metodik xulosalar shuni ko'rsatadiki, badiiy matn bilan ishlash jarayonida tahliliy va ijodiy yondashuv uyg'unligi muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, ijodiy mashqlar o'quvchilarning tasavvurini kengaytirib dars jarayonini qiziqarli va samarali qiladi. Tajribalar asosida quyidagi metodik tavsiyalarni berishimiz mumkin: darslarda badiiy matn tanlashda o'quvchilarning yosh xususiyatlari inobatga olinishi; savol va topshiriq ochiq, o'quvchilarga tushunarli bo'lishi, fikrlashga undashi lozim; tahlil, munozara va ijodiy ishlarni bog'liq holda tashkil etish. Shuningdek, har bir darsda o'quvchining erkin fikr bildirishga imkon yaratish lozim.

Xulosa o'rnida shuni takidlashimiz joizki, badiiy matnlar bilan ishlashga asoslangan ta'lim jarayoni o'quvchilarning tafakkur olaminin boyitib, ularning tasavvur va mantiqiy fikrlash qobiliyati rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Badiiy asarlar orqali berilgan voqelik o'quvchini befarq qoldirmaydi, aksincha, uni mushohada qilishga, chuqur o'ylashga va o'z munosabatlarini bildirishga undaydi. Umuman olganda, badiiy matnlar bilan ishlash o'quvchilarni nafaqat bilimli, balki mantiqiy fikrlay oladigan, tahlil qilishga qodir va ijodkor shaxs sifatida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv ta'lim jarayoniga chuqur mazmun bag'ishlab, o'quvchilarning intellektual va ma'naviy kamolotiga mustahkam zamin yaratadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Rahmatullayev Sh. „, Adabiyot o'qitish “ - Toshkent : Fan, 2016
2. Qosimova K., Matchonov S. „, Ona tili o'qitish metodikasi”. -Toshkent : Noshir, 2019

3. Abdullayeva M. „Ta’lim jarayonida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish usullari”. - Toshkent : Fan va texnologiya, 2020.
4. Ismoilov R. „O’quvchilarda mustaqil va tanqidiy fikrlashni shakllantirish”- Toshkent : Ma’naviyat , 2019
5. G’afforova T. „Badiiy matn va o’quvchi tafakkuri”.- Toshkent : Noshir, 2021
6. Zunnunov A. „Badiiy asar tahlili asoslari”.- Toshkent : Universitet, 2015
7. Jalolov J. „ Til o’rganish va tafakkur rivoji”. - Toshkent : O’qituvchi, 2014
8. Xudoyberganova D. „Ijodiy topshiriqlar asosida ta’lim samaradorligini oshirish”.- Toshkent : Fan, 201
9. Satorov A. „Adabiy ta’limda tahlil va talqin masalalari” - Toshkent : Universitet, 2017
10. Matchonov S. „O’quvchilarning nutq va tafakkurini rivojlantirish metodikasi”. - Toshkent : O’qituvchi, 2020
11. To’xtayeva H. „Boshlang’ich ta’limda ijodiy fikrlashni rivojlantirish”. - Toshkent : O’qituvchi , 2018
12. Karimova S. „Badiiy asarlar va tafakkur madaniyati”. - Toshkent: Fan:, 2021
13. Akhmedov O. „Badiiy matnlar orqali mantiqiy fikrlashni rivojlantirish”.- Toshkent : Fan, 2018